

IJDODIY PARVOZ

2023-yil may № 5 (120) ✓ dsmi.uz ✓ nashriyot@dsmi.uz ✉ t.me/dsmi_uz

9 may – Xotira va qadrlash kuni



Xotira – abadiy, qadr – muqaddas!

Xotira va qadrlash biz uchun chuqur ma’no-mazmunga ega qadriyatlardan biridir. Jumladan, Ikkinci jahon urushida halok bo‘lgan minglab yurtdoshlarimiz xotirasini yod etish, qonli janggohlardan omon qaytgan bobolarimiz, zahmatli yillarni qahramonona mehnat, sabr-toqat va fidoyilik bilan o‘tkazgan, front ortida turib fashizmga qarshi kurashgan yurtdoshlarimizga hurmat-ehtirom ko‘rsatish bizning insoniylik burchimizdir.

Eldor SHERMONOV,
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori v.b.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Barchamiz, avvalo, buyuk g‘alabaga beqiyos hissa qo‘shgan, mana shu yorug‘ kunlarga yetib kelomagan aziz insonlarni doimo yod etamiz, ularning xotirasini, pok ruhlari oldida ta‘zim qilamiz. Shafqatsiz urushda, mashaqqatli mehnat frontida mardlik va jasorat ko‘rsatgan barcha faxriyalarimizga yuksak hurmat va ehtirom, chuqur minnatdorlik bildiramiz. Hech shubhasiz, oradan qancha yillar, zamonlar o‘tmasin, buyuk g‘alabaning qadr-qimmati va ahamiyati tobora ortib boraveradi.

Bugungi yorug‘, musaffo osmonimiz sofligini, hozirgi tinch, osuda hayotimizni ta’minalash uchun bukilmas iroda va jasorat namunasini ko‘rsatgan, Vatan uchun jonlarini fido qilgan mard va jasur ota-bobolarimizning matonatlarini hech qachon unutmaymiz. Ayni vaqtda jang maydonlarida mardlik va jasorat ko‘rsatgan, front ortida fidokorona mehnat

qilib, bugun oramizda sog‘salomat bo‘lib yurgan muhtaram faxriyalarimizga ta‘zim qilamiz.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan Ikkinci jahon urushi yillardagi tariximizni o‘rganishda tom ma‘noda yangi davr boshlandi. Masalan, 2020-yilga qadar urush boshlangan paytda yurtimiz aholisi 6 million 551 ming kishini tashkil etgan va ularning 1 million 500 mingga yaqini urushda ishtirok etgan, deb hisoblanar edi.

Yangi topilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistondan 1 million 951 mingga yaqin kishi urushga safarbar etilgani aniqlandi. Demak, har uch nafer o‘zbekistonlikdan bittasi qo‘liga qurol olib, fashizmga qarshi jang qilgan. Bundan anglashiladiki, 451 ming nafer yurtdoshlarimizning nomlari va taqdiri shuncha yillar davomida e’tibordan chetda qolib kelgan. Shuningdek, o‘scha davorda “qulq” sifatida boshqa o‘lkalarga surgun qilingan 59 ming naferdan

ortiq vatandoshlarimiz ham harakatdagi armiyaga safarbar etilganligi aniqlandi.

Bundan tashqari, ilgari 396 ming nafer O‘zbekiston fuqarosi urushda halok bo‘lgan, deb aytildi. Aslida bu raqam 538 ming naferdan ziyod bo‘lgan bo‘lsa, 158 ming naferdan ko‘prog‘i bedarak yo‘qolgan. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida, orden va medallar bilan mukofotlangan O‘zbekiston vakillarining soni bo‘yicha ham oydinlik kiritildi. Ilgari bu ko‘rsatkich 120 ming, deb qayd etilar edi. Yangi ma‘lumotlarga asosan, Ikkinci jahon urushida 200 mingdan ziyod askar va ofitserlarimiz jangovar davlat mukofotlari bilan taqdirlanganani aniqlandi. Jumladan, ilgari 280 nafer deb hisoblab kelingan o‘zbekistonlik Sovet Ittifoqi Qahramonlarining soni 301 nafer ekani, 70 nafer yurtdoshlarimiz uchchala darajadagi “Slava” ordeniga sazovor bo‘lgani o‘z tasdig‘ini topgani tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishiga olib keldi.

Ikkinci jahon urushi yillarda, O‘zbekiston urush maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, quroq-yarog‘, dori-darmon, kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib beradigan muhim tayanch markazlaridan biriga aylandi. Ishlab chiqarish korxonalarini harbiy maqsadlarda qayta tashkil etildi. Jumladan, ko‘p millatlari ahollizning fidokorona mehnati bilan o’sha vaqtida 300 ga yaqin ishlab chiqarish korxonalarida harbiy mahsulotlar ishlab chiqarildi.

2



HAMID OLIMJON

G‘alaba qo‘shig‘i

Fashizm – odamzod uchun qora dog‘ keldi,
Quyosh nuriga qarshi chang bilan tuproq keldi.
O‘laksa ustidagi quzg‘un bilan zog‘ keldi,
Yolg‘iz mening Vatanim, baxt o‘stirar bog‘ keldi.

Kunduzni tun deb o‘ylab, sarhadga keldi o‘g‘ri,
Ko‘rshapalak oxiri otashga keldi to‘g‘ri.
Tushar doim esimga – o‘zbek maqolidir bu:
Kim avval musht ko‘tarsa, albatta, qo‘rqoq keldi.

Gitlerning ichda qilgan qarg‘ishini bilardik,
Yer tagida ilonning izg‘ishini bilardik,
G‘ofil deb o‘ylamasin, har ishini bilardik,
O‘rmonda bo‘ri bilan sher olishar chog‘ keldi.

Dushmanning tepasida yozib po‘lat qulochin,
Kalxat bilan olishgay osmonda zo‘r lochin.
Tarixning hukmidir bu: biznikidir zafar chin,
Quturgan selga qarshi osmon bo‘yi tog‘ keldi.

Hozir bo‘lsin fashizm yer tagida chirishga,
Mana biz ko‘kka uchdik, tepasida qirishga,
Odamzod – guvohimiz, qoyil qolsin bu ishga,
Dushmanlarni yer bilan yakson qilar chog‘ keldi.

Inson aziz, xotira muqaddas!

Farangiz ABDURAHIMOVA,
“Ommaviy tadbirilar menejmenti”
ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi



Ikkinci jahon urushida Germaniya mag‘lub etilgan va G‘arbiy frontda urush tugagan kundan boshlab, O‘zbekistonda “9-may – Xotira va qadrlash kuni” umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanib kelinadi. Hamma narsa inson manfaatlari uchun! Ana shu ezgu maqsad istiqlol yillarida hayotimizda mustahkam o‘rin egalladi. Yurtimiz mustaqil taraqqiyot yo‘lining bosh yo‘nalishi sifatida hamyurtlarimiz hayotida o‘zining mustahkam ifodasini topdi.

2

Muvaffaqiyat asosiy
maqsadingiz ko‘z oldingizda
turganda keladi. Maqsadingiz
ko‘zdan nari ketishi bilan
muvaffaqiyat ham ketadi.

BERNARD SHOU

Agar bolalaringiz aqli
bo‘lishini istasangiz, ularga
ertaklar o‘qib bering. Agar
yanada aqlli roq bo‘lishini
xohlasangiz, undan-da ko‘prog
ertak o‘qib bering.

ALBERT EYNSTEYN

Odamning irodasi
qanchalik kuchli
bo‘lsa, muhabbatdagi
vafosi ham shunchalik
kuchli bo‘ladi.

STENDAL



9-MAY

Xotira – abadiy, qadr – muqaddas!

Shu davrda front hududlaridan yurtimizga 151 ta zavod ko'chirib keltirilib, qisqa fursatda ishga tushirildi. Yangi aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, urush bo'layotgan hududlardan O'zbekistonga 1 million 500 ming kishi, jumladan, 250 mingdan ziyod bola evakuatsiya qilingan. Xalqimiz bu odamlarga boshpana berib, ota-onasidan judo bo'lgan yetim bolalarni "Sen yetim emassan!" deb o'z bag'riga organi insonparvarlikning chinakam namunasi bo'ldi.

O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan zavodlarda keksalar, ayollar, o'smir bolalar tunu kun mashaqqatlari mehnat qilgani haqiqiy fidoyilik, qahramonlik namunasi, desak aslo xato bo'lmaydi. Bunday misollar buyuk g'alaba biz uchun naqadar qimmatga tushgani, xalqimiz dunyoni fashizm balosidan xalos etishga qanday katta hissa qo'shganini yaqqol ko'rsatadi. Tarixning ana shunday beshafqat va suronli sinovlardan yorug' yuz bilan har tomonlama munosib o'tgan xalqimizga har qancha ta'zim qilsak, har qancha tasannolar aytaksak, arziyi albatte.

Prezidentimiz shu yil 8 may kuni Toshkent shahridagi "Chinobod Plaza" sanatoriysiga borib, urush qatnashchilarini bilan dildan suhbatlashdi.

Sizlarni ko'ray, bayram bilan tabriklay deb keldim. Bu avvalo, sizlarning bayramingiz. O'sha paytillardagi jasorat va matonatingiz tufayli keyingi avlodlar tinch, erkin yashadi. Mashaqqatli mehnat va zafarlarga to'la hayot yo'lingiz bugungi yoshlar uchun chinakam ibrat maktabi, vatanparvarlik maktabi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Siz bilun butun el-yurtimiz faxrlanadi. Tabarruk duolaringizni olish, sizga qo'shilib xalqimizning tinchligini so'rash katta baxt. Hayotda ko'p-ko'p sinovlarni ko'rgan, qariyb bir asrlik hayot tajribasiga ega bo'lgan sizdek muhtaram insonlarning duolari ijobat bo'ladi. Nuroniyalarimiz uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga bundan buyon ham katta e'tibor qaratamiz. Bu – biz uchun muqaddas burch va vazifadir", – dedi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev.

Bizni tarbiyalab voyaga yetkazgan, hayot yo'llarida tayanch va suyanch bo'lgan ana shunday tabarruk insonlar oldida biz farzandlar doimo qarzdormiz. Shuning uchun ham hurmatli nuroniyalarimizga e'tibor va g'am'mo'rlikni yanada kuchaytirish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mamlakatimiz siyosatining doimiy e'tibor markazidadir. Bu boroda muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "**Bu masala qayerda, qaysi lavozimda ishlamasin, yurtimizdagi har bir inson, ayniqsa, rahbarlar faoliyatida hamisha birinchi o'rinda turishi, ularning nafaqat vazifasi, balki insoniy burchiga aylanishi kerak**".

Inson aziz, xotira muqaddas!

Bugun O'zbekiston – inson va uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati ulug'lanadigan buyuk mustaqil davlatga aylandi. Xotira va qadrlash xalqimizning asriy qadriyatlaridan biridir. El-yurtining tinchligi, osoyishtaligi, erki va ozodligi uchun kurashgan insonlar hamisha xalqimiz ardog'idadir.

Mustaqil O'zbekistonda asrlar davomida qahramonlarcha o'lkamizni himoya qilgan, uning erkinligi, mustaqilligi, xalqimizning tinchligi uchun kurashgan vatandoshlarimiz xotirasiga bag'ishlanadi. Xotira va qadrlash kuni chinakam milliy bayramdir. Bu bayramda insonlar yaqinlarini, do'stu yorlarini holi dan xabar oladi. Bu kunda

yoshlar va yoshi ulug' kishilar xotira maydonini ziyyarat qiladi. Vatanimizning tinchligi yo'lida jonini fido qilgan ajdodlarimizning xotirasini yod etib, ezgu ishlarini, amallarini davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni e'zozlashimiz va qadriga yetishimiz kerak.

Bugungi kunda xalqimizning muqaddas ziyyaratgohiga aylangan, poytaxtimizdagи Xotira maydonida o'rnatalgan "Motamsaro ona" haykali esa mazkur sana nishonlanishining asl ruhani ifodalab turdi. Yashab o'tganlarni yodga olish, xotirlash, ularning oxirati obod bo'lismeni so'rash, aynan Motamsaro ona siyimosi orqali namoyon bo'lmoxda. Cheksiz qayg'ucho'rnigan onaizor timsolida jigarbandining

tirik ekaniga, uning eson-omon-o'z bag'rige qaytishiga umid qilib o'tgan ming-minglab onalarning taqdiri, ularning sog'inch va iztirob tuyg'ulari aks etgan. Ajdodlarimizning yuksak jasorati, avlodlar uchun har doim o'nak bo'lib xizmat qiladi. Ozodlik va musaffo osmonimiz yo'lida o'z hayotini qurban qilgan hamyurtlarimiz ruhi poklariga doimo humrat bajo keltiramiz.

Vatan ozodligi uchun kurashgan yurtdoshlarimiz va ularning avlodlarini, butun yurtimiz ahlini bayram bilan samimiy tabriklab, mustahkam sog'lik, ko'tarinki kayfiyat va tinchlik-xotirjamlik tilaymiz!

Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, mustaqilligimiz abadiy bo'lsin, aziz vatandoshlar!

Urush... bu so'zni eshitgan har bir inson larzaga tushadi. Onalarni bolalaridan, ayollarni tur mush o'rtog'didan, bolalarni otalaridan judo qilgan mash'um va mahzun davr. Lekin ota-bobolarimiz vatan sarhadlarini himoya qilib, vatanning oliy xizmatini o'tagan qahramonlardir. Biz ularni qancha olqishlasak, ulug'lasak ularning qilgan xizmatlari hamda xotiralari oldida kamlik qiladi. Garchi o'zim ko'rmagan bo'lsam-da, bobom Shomurod Cho'liyev haqida keksa avlod vakillaridan eshitganlarimni hikoya qilaman.

Bobolarimizga ta'zimdamiz!

Qishloq chekkasidagi hovli. Hovli chetidagi supa ustida kechagi mashaqqatli mehnatdan so'ng uxlab qolgan Shomurod bazo'r uyg'ondi. Dadasining uyg'onishini intizorlik bilan kutayotgan uch nafar qizaloq dasasining bag'rige kim o'zarga chopib keldi. Dadasining bo'ynidan quhib, o'z tilida nimalarnidir aytdilar. Shomurod har bir qizini bag'rige bosib, ayoli nonushta tayyorlagan tomon borayotgan ediki, kimdir devor osha chaqirdi. Qarasa, qishloq pochtachisi qo'lida chaqiruv qog'ozni bilan ayb ish qilib qo'yan boladek mulzam qarab turibdi. Chaqiruv qog'ozini qo'liga oлган Shomurod qizlarining oldiga keldi va qizlarini uzoq bag'rige bosdi. Kechga yaqin qishloq oqsoqollarini kelib, Shomurod bilan xayrashdilar. Urushga ketgan yaqinlariga salom va sovg'alar topshirdilar. Qishloq nuroniyalari Shomurodga "oy borib omon qay!", deya ezgu tilaklar bildirib, oq fotiha berdi.

Poyezd pishqirib, vatan sarhadlarida kechayotgan urush tomon yelib borar. Poyezd ichida olis-olislardan vatan himoyasi uchun oila a'zolari tinchligini o'ylab, minglab mard o'g'onlari ketardi. Ular orasida O'zbekistonning chekka hududidan cho'pon Shomurod ham bor edi. Shomurod oilasi, yaqinlarini uyda qoldirib jang maydoni tomon ketardi. Uning dilida vatanini dushman gazandalardan himoya qilish va yaqinlar oldiga sog'-omon kelish istagi jo'sh urardi.

Poyezd to'xtadi. Shomurod va uning sheriklari urush nafasi kezayotgan Moskva ostonasiga yetib kelishdi. Biroz tayyorgarlikdan so'ng, ular jang maydoni tomon yo'l olishdi. Shomurod rus komandir qo'l ostida jangga kirdi. U rus tilini tushumas, lekin bir tojik sherigi orqali rus komandir bilan muloqot qilardi. Komandir bergen vazifalarni a'lo darajada bajarardi. Jang shiddatli davom etar, dushman betinim bostirib kelardi. Shahar-u qishloqlarni vayronaga aylantirib, ayovsiz oldinga intilardi. Shomurodning komandasini Kiyev yaqinida dushman qurshovida qolib ketdi. Dushman tinimsiz o'q yomg'iri yog'dirar, ko'plab safdoshlari qurban bo'lishgandi. Tun cho'kkani bir damda Shomurod va rus komandir makkapoya orasida berkinib yotar, atrof dushman harbiylariga to'la edi.

Komandir Shomurodga qat'iy buyurdi, – navbat bilan uxlab turamiz, ovoz chiqarmay. O'rnimizni sezdirmasligimiz kerak, – dedi-yu, uxladi. – Shomurod navbatchilikda turardi. Bosh ko'tarishga majoli yo'q edi. Chunki dushman vizvoti tepalikka joylashib oлган, tinimsiz o'q yomg'iri yog'dirardi. Tun qorong'isida o'qlar uchishi yaqqol ko'rinardi. Shomurodning toqati tugadi. U qo'l pulimyotni o'qladi. Allohdan madad so'rab dushman tomon qaratdi. O'q otilayotgan tomonni taxmin mo'ljalab o't ochdi. Alloh qo'lladi, mo'ljalga aniq tekkan ekan, birdan baqir-chaqir bo'lib ketdi. Shovqindan komandir uyg'onib, Shomurodga baqira ketdi, – nima qilib qo'yding, endi joyimiz aniq bo'ldi, tamommiz endi, – deb talvasaga tushdi.

Birozdan so'ng hamma yoq jumjut bo'ldi. Shu bir o't ochishda, butun boshli dushman vizvoti yakson bo'lgan, o'nlab nemis askarlar qurban bo'lgandi.

Tong otdi. Shomurod va komandir hali ham qurshovda. Ularning oldida, qurshovdan chiqish uchun yagona yo'l qolgandi. Bu minalashtirilan hudud edi. Shomurod hududni ko'zdan



**Amiriddin SHOMURODOV,
"Madaniyat va san'at
menejmenti" ta'lim yo'naliши sirtqi
2-bosqich talabasi**

kechirib keldi. Bu joy haqiqatan ham minalashtirilgan edi. Ular shu yerdan o'tishga qaror qilishdi. Hayotlari qil ustida turgan, salgina xato qilib qo'yish hayotlariga nuqta qo'yishi mumkin bo'lgan bir vaziyatda, tavakkal asosida shu yo'lni bosib o'tib, qurshovdan chiqib olishdi.

Shomurod komandir bilan birga qayta boshqa qismiga qo'shilib jangga kirishdi. Dushman hali-hanuz avovsiz jang olib borar, vatan fidoyilarini ularga bor imkoniyatlaricha qarshilik ko'rsatishardi. Dushmanga yetarlicha qarshilik ko'rsatish uchun qanchadan-qancha askar qurban bo'lardi. Shomurod ham mardona harakatlari bilan dushmanga anchha talofatlar yetkazardi. Shomurod Saratov, Kuybishev, ayniqsa, Xarkov hamda Kiyev shaharları himoyalari faol ishtirot etdi. Shu janglardan birida, dushman yog'dirgan o'qdan Shomurodning bir qo'li va oyog'idan o'q yaralab, og'ir ahvolda harbiy gospitiga jo'natildi.

U gospitida uzoq muddat davolandi. Shifokorlar Shomurodning oлган jarohatlari bilan jangga qayta kirib bo'lmasligini aytib, uni uyiga qaytarishga qaror qilishdi. Shomurod poyezdga mindi. U mash'um manzaralarga guvoh bo'lgan safdoshlari, birga yurt tinchligi uchun yang qilib, jon fido qilgan do'stlarining xotirasini bilan jonajon qishlog'iga talpinardi. Poyezdning tarqa-turuqi qulogni qomatga keltirar, jang maydoni tobora ortda qolib ketardi.

Shomurod qishlog'iga, mo'jazgina uyiga qo'l va oyog'i yarador holda kirib keldi. Uy kimsasizlakdan huvvillab qolgan, uning uch beg'ubor qizalog'i yo'qchilik va kasallik tufayli yorug' dunyoni tark etgan edi. Ayoli bu judolikni ko'tarolmay qishloqdan bosh olib ketgan edi. Shuncha musibat, jang mashaqqatlarini ustiga bu sinov ham bor ekan.

Nihoyat jang tugadi, g'alaba qozonildi. Shomurodning yuragida umid uchqunladi. U yaqinlarining qistovi bilan qayta oila qurdi. Hayotini xalq farovonligi uchun tikishga qaror qildi. Cho'ponlik kasbini tanlab, kolxozi mollarini yovvoyi bo'ilar to'dasidan himoya qilib, xalq farovonligi uchun munosib hissa qo'shdi. Shomurod beshta o'g'il farzandni voyaga yetkazdi. O'g'onlari el koriga yaradi.

Hayot sinovlariga bardosh bergan shunday bobolarimiz bilan biz yosh avlod faxrlanamiz. Bobolarimiz biz yosh avlod uchun janglarda mardonavor kurashdilar. Bugungi tinchligimiz uchun fidokorlik qilgan barcha bobolarimizning pok ruhi oldida ta'zimdamiz!

DARYOLAR



SOTILGANMI?...

Iyul oyidagi issiqlik hammani salqin tabiat qo'yniga haydadi. Xumson, Yusufxona, Sijjak va Amirsoy tomon shoshayotgan shaharliklarning keti uzilmaydi. Dengiz va tog' turizmining ahamiyatini endi angladik shekilli.

**Viktor ALIMASOV,
falsafa fanlari doktori,
San'at va madaniyat menejmenti kafedrasi professori**

Ukamning "Matiz" rusumdag'i mashinasida oilaviy toqqa chiqdigan, Ugam yoki Sijjak daryosi bo'yida salqinlanib keladigan bo'ldik. "Bochka"dan o'tib, Ugam daryosining Sijjakka quyladigan joyiga keldik. Hamma joyda shahardan kelganlar, birorta ham bo'sh supa yo'q. Ukam mashinasini tepaga haydadi. Ugam daryosi ustidagi ko'prikdir o'tdik, suv bo'yida salqinlanayotganlarni ko'rib, to'xtadir. Ming taajjubki, daryo bo'yulari simlar bilan o'ralgan. Har o'n qadamda supa, supada dam oluvchilar jam bo'lgan. Oqayotgan daryoda qo'lni, betni chayqashga imkon yo'q. Sim to'siqlarni ro'paradagi hovli egalari o'rnatishgan. Surishtirsam, bo'sh joy yo'q. Bitta supa kechgacha 150 ming so'mdan, dedi. Tunasak, 250 mingdan ekan. Qiziqishim oshib: daryo, havza bo'yalarini sotib oqanmisizlar, deb so'radim. O'zini mulk egasi deb tanishtirgan yosh juvon, savolimga javob berolmay, qochib qoldi. Qiziq, Ugam daryosining deyarli yarmini kezib, biror bo'sh joy topolmadik. Suv bo'yalarini ro'paradagi hovli egalari xususiy mulk qilib olgan. Ular suvga yaqinlashishga ruxsat berishmaydi, ba'zilari suv bo'yalarida parranda, mol boqadi ham. Ayrim xonardonlardan axlat suvlari daryoga oqib turadi.

Joy izlab Sijjak tomon ko'tarildik. Toza va salqin havo, ko'm-ko'k tabiat, pastdag'i lojuvard daryo bahridilingni ochadi.

Bo'stonliq, haqiqatan ham – bo'ston diyor! Yo'llar kengaytirilmoqda, savdo maskanlari tiklanmoqda. Lekin suv bo'yiga yaqinlashish imkoni yo'q. Hammayoqning egalari bor. Supalarni pullashadi. Bir amallab, "Sijjak" mahallasi tepasida bir gektarcha yerni egallab olgan kampir hovlisiga ro'para keldik. Har bir supa kechgacha 350 ming so'm, tunab qolsak, xonasi 200 ming so'mdan. Bor sharoiti to'rt ko'racha to'shalgan supa va o'choq. Arzonroq joy qidirib yana tepaga yurdik. Basseyni bor hovlini topdik, kuniga 800 ming, shanba va yakshanbag'a 1 million so'mdan so'radi. Loyli soy bo'yiga yo'l topdik, 15 tacha dam oluvchilar cho'milishayotgan ekan. Quyosh kuydiraman, deydi. Hech qanday sharoit yo'q, tashlandiq sohil. Sijjak bo'yini aylanib, aholi uchun hech qanday qulaylik, cho'milish maskani yaratilmaganidan hayratga tushdim. Hamma joyning "o'z xo'jayini" bor, ularni faqat pul qiziqtiradi.

Ertasi kuni "Oqtosh" dam olish maskanini tomon bordik. Yo'llar kengaytirilayapti. Yangi binolar qad ko'tarayapti. Ammo yoshlarni ish bilan ta'minlash muammo bo'lib qolayotganini sezish qiyin emas, ursa tog'ni talqon qiladigan yigitlarning qatorlashib gap sotib o'tirganidan shu fikrga kelaman. "Aloqachi", "Oqtosh" bolalar dam olish maskanlari gavjum, bu shakllangan an'ana. Lekin ushbu dam olish maskanlari yonidan

oqib o'tadigan anhorlarning xususiy mulkka aylantirilgani taajjub uyg'otadi. Bir paytlari Komil Yashin oromgohi bo'lgan maskan va uning yonidan oqadigan anhorni, bir ming yetti yuz metr kv. maydonni mulkiga aylantirgan G. ismli ayol faxrlanib qo'yadi. Ammo u anhor sotilmasligini xayoliga keltirmaydi. Hududiga pul to'laganlarni qo'yadi.

Xojakentga yaqinlashgan sari Chirchiq daryosi bo'yalarida qurilayotgan dachalarga havas bilan qarayman. Tik daryo bo'yiga qurilgan bu dachalar dam olish ishtiyoqini oshiradi. U yerda kamdan-kam kishilar dam oladi. Aytishlariga qaraganda, ularning kunlik ijara haqqi 300 dollardan tepe emish. Sinab ko'rish uchun "Matiz"ni shu tomonga burdik. Xojakentga kiraverishdag'i bu dachalarda barcha imkoniyatlar mavjud. Hattoki, Wi-Fi ham. "Dacha" deb yozilgan hovli eshigini taqillatdik. Ikki qavatlari hovli, basseyn, suv ust'i, yashash uchun barcha narsalar muhayyo, istasak, oshpaz kelib xizmat qilishi mumkin. Xohlasak, Beldirsoy yoki Amirsoyga chiqishimiz mumkin. Narxi 800 dollar! Ijarador: ikki-uch oila bo'lib kelsanglar, arzonroq tushadi, dedi. Boshqa dachalarni ko'rishga hojat qolmagandi.

Orqaga qaytishda, Gazalkentga yetmay suv bo'yib bor ekan. To'rt-besh supa qo'yilgan. Bolalar cho'milib yuribdi. Sohil "xo'jayini" bo'lgan ayol o'choqlarni, ichimliklarni, bo'sh

supani taklif etdi. Kechgacha 30 ming so'm so'radi. Ikki-ikki yarim soatga kun botardi. Yon-atrofda servis yo'q, bo'sh shishalar va baklashkalar sochilib yotibdi.

Chirchiqqa yaqinlashgan sayin ko'ngling xijil bo'ladi. Ariqchalarda suv shaldirab oqayapti, lekin ariq bo'ylari, yo'laklar, domlar atroflari sap-sariq, maysalar qovjirab yotibdi. Issiq quyosh kuydirgan tepaliklar atroflarida g'ishtlar, beton siniqlari, qandaydir simlar, yog'ochlar ko'rindi, yaqin o'rtada bu yerlarga obodonlashtirish xodimlari kel-magan. Chala-chatti asfaltlangan yo'il-larning ikki tomonidan chang ko'tariladi. Go'yoki, bu yerlarni madaniyat, sivilizatsiya chetlab o'tgandek. Darvoqe, sakson kilometrdan ziyod yo'il yurdik, biror manzilda va mahallada madaniyat yoki ma'rifat maskanini uchratmadik. "Bochka" atrofida dam oluvchilar ko'p, lekin supalar pulli, oziq-ovqat qimmat, sifatsiz. Qimiz ichgandim, ko'nglim aynidi, oshqozonimda og'riq turdi. Ukam ham bezovta bo'ldi. Bir yarim litr qimiz 35 ming so'm. Ularning sifatiga hech kim kafolat bermaydi. Ayron, qatiq, sharbat haqida shunday deyish mumkin.

Xo'jakent etagidan tortib to "Sijjak" mahallasi oxirigacha daryo temir va beton to'siqlar bilan to'silgan. Ularning egalari shuncha joyga egalik qilish huquqini qanday qilib qo'liga kiritishgan ekan? Daryolar, o'rmonlar, soylar endi xalq mulki emasmi? Soylar atrofidagi axlatlarni kim tozalaydi? Ekoliya partiysi va sanitariya-epidemologik bo'limlar, yoshlari ittifoqi ko'kka ko'tarib maqtayotgan volontorlar qani? Tuman madaniyat bo'limi va ma'rifat o'choqlari uchun keng va o'ta foydali bo'lgan turistik sayohatlar uyushitirishdan qancha foyda olsa bo'ladi? Dam olish maskanlarida madaniyat va san'at xodimlari umuman ko'rinxaydi, ular o'rnini har xil tabobatchilar, "kuf-suf"chilar, bashoratchilar, o'zicha xonandalar egallab olgan. Ming bir mayda-chuydalarni, chang yerga yoyib, duobaxsh atab tadbirkorlik qiluvchilarning son-sanog'i yo'q.

Eng hayratli tomoni shundaki, turistik xizmatlarni va rekreatsiya markazlarini tashkil etishga davlatimiz yirik investitsiyalar kiritayotgan, sayohlikni xo'jalik sohasiga aylantirish uchun maxsus dasturlar qabul qilgan bo'lsa-da, ulardan foydalanish ijobiy o'zgarishlar yasayotgani kuzatilmaydi. Aholining dam olish madaniyatini oshirishda Turkiya, Dubay, Sochi, Karlova Varna, Issiq ko'l tajribalaridan foydalanish kerak.

Joylarda milliy madaniyatimiz ko'rki sifatida ibrat bo'ladigan xususiy rekreatsiya markazlari, shaharlar atroflarida ochiq havoda, suv bo'yalarida aholi dam olishiga mo'ljallangan maskanlar barpo qilish lozim. Masalan, atrofi kanal, daryo va suv havzalari bilan o'ralgan Chirchiq shahrida keng aholi uchun cho'milish maskanlari yo'qligini izohlash qiyin. Bu yilgi anomal issiqlik daryo, anhor va suv havzalaridan aholining dam olish madaniyatini oshirishda keng foydalanish zarurligini ko'rsatdi. Bunday issiqlik yana kelishi mumkin.

San'atimizni qadrlaylik

Bugungi davrimiz milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanish jarayonini madaniy merosimizning, shu jumladan, ko'p asrlar davomida shakllangan badiiy merosimizni, an'analarimizni o'rganishni taqozo etmoqda. Xalqimizning bebafo ma'naviy mulki bo'lgan milliy kuy-qo'shiqlarimiz hamda raqslarimiz qimmatli manbalardan biridir. Ularni keng miqyosda tadqiq etish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ezgu g'oyalarni turli g'arazli manfaatlar yo'lida soxtalashirishga intiluvchilar tobora ko'payib borayotgani hech kimga sir emas. Oqibatda asl maqsadlar niqoblanib, azaliy qarashlarning ma'nosи chigallashmoqda. San'atimizga kirib kelgan ommaviy madaniyat, degan tushuncha keng tarqalgan. Bu niqob ta'siri sa'natimizni tubdan o'zgartirib bormoqda. Oddiy xalqni qiyinayotgan muammolar ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalib uning qo'shiq qilinishi, "remix" bo'lishi, bu albatta, bizning madaniyatimiz va san'atimiz uchun achinarli holdir.

Hozirda xalq ichidan chiqqan blogerlar deymizmi, aktyorlar deymizmi, xalq ichidan chiqqan madaniyatsiz mashhurlar bugungi kunda yoshlarga, ya'ni bizga va kerak bo'lsa yoshi katta insonlarga ham katta ayanchli ta'sir o'tkazmoqda.

U insonlarning so'zlarini omma orasida keng tarqalib, "TOP1" darajasiga ham chiqib qolmoqda. Odamlar ham shuni talab qilishmoqda. Insonlar tilida bu qo'shiqlar xirgoyi qilinayapti. Metroda, aftobusda, mashinada, xullas, hamma joyda ijro qilinmoqda. Kuni kecha xalqlar do'stligi san'at saroyida, konserga va san'atga aloqasi yo'q yosh bola konserzalida qo'shiq emas, qo'shiqqa aylangan gapini aytib yurishi bizning san'atimiz 1000 so'mga tengmi, degan gap so'zlarini ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokamalarga sabab bo'ldi.

Nega hozirgi kunda teatrqa tomoshabin kam kelmoqda? Nega jonli ijroni yoshlar, yoshi kattalar, ayrim qo'shtirnoq ichidagi insonlar eshitishmaydi? Chunki ularga bizning tariximiz, azaliy madaniyatimiz va san'atimiz qiziq emas.

Institutni tamomlagan aktyorlarning sakson foizi to'rt yil tahsil olib o'zining yo'nalashida emas, balki blogerlik sohasida faoliyat yurityapti. Bunga sabab, chet eldan kelgan "ommaviy madaniyat" degan tushuncha insonni mafkuraviy tomonga tortib bormoqda va bachkanalik ko'paymoqda. Bu holat davom etaversa, san'atimiz qadrsizlanib qolishi mumkin.

To'g'ri, biz demokratiya davrida yashayapmiz. Bizningcha, eng avvalo, reklama va ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi davlat qonunlariga qat'iy amal qilinishi kerak. Ya'ni reklamachilar va jurnalistlar davlatimiz va jamiyatimiz xavfsizligiga yo'l qo'ymasliklari kerak. Bilimga chanqoq yoshlearning ustidan kulish, ularni yakkalash, qaramog'dan chetda qoldirish, ochiq-sochiq kiyim kiyish, sigaret chekish, tungi bar va kafelarda ayshishrat qilish kabi unsurlar qachongacha davom etadi? Yoshlearning ota-onasi qayerga qarayapti? Nega ularni bu holatlar tashvishga solmaydi? Agar shu zaylda davom etaversa, madaniyatimiz va ma'naviy o'zligimiz achinarli holga kelishi mumkin.



**Ahrorbek INOMJONOV,
"Madaniyat va san'at sohasiga menejmenti"
ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi**

KUTUBXONA – g'oyalar maskani

Kutubxona so'zi arabchadan olingen bo'lib, kutub – "kitoblar", forschanan xona – "uy" kitoblar yig'iladigan joy ma'nosini anglatadi. Bunda axborot kitob, gazeta, jurnal, video va audiotasma, optik disk va hk shaklda bo'lishi mumkin. Kutubxonalar tashkilot (jamoat) yoki jismoniy shaxs (shaxsiy kutubxona) tomonidan tashkil etilishi mumkin. Ma'lumki, kutubxonalar qadim-qadimdan insonlar uchun ma'naviyat va ma'rifat maskanidir. Inson zoti doim kitoblarga intilib yashab kelgan. Har doim kutubxonalar jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lgan. A.Gersen kutubxonaga "Kutubxona – bu g'oyalar maskani, unga hammani taklif qilish mumkin", deb ta'rif beradi.

Kitob – axborotlarni, g'oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi; bilimlar targ'iboti va tarbiya quroli; badiiy, ilmiy, ijtimoiy asar. Kitob o'qimasdan turib, biz kelajagimizni tasavvur qilolmaymiz, shuningdek, har bitta shaxs inson bo'lib tarbiyalanishi uchun kitobning o'rni juda kattadir. Insонning eng yaqin do'sti – kitobdir. Kitob insonni yaxshini yomondan farqlashni o'rgatadi.

Aslida kitobdan yaxshiroq do'st yo'q, jahonda. Darhaqiqat, ma'naviyatimizni yuksaltiruvchi, ilmning yuksak cho'qqisi sari yetaklovchi asosiy manba, bu kitobdir. Bizga ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda ma'naviyat ozuqasi, bilim manbayi hisoblangan kitob mutolaasini oshirish, yoshlarda, kitobxonlarda mutolaa madaniyatini yuksaltirishda mamlakatimizda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, zamonaviy va shinam kutubxonalar biri, Qashqadaryo viloyatiga tegishli bo'lgan Sayido Nasafiy nomli Qashqadaryo viloyat axborot-kutubxona markazida ham katta o'zgarishlar bo'imoda. Bu kutubxona teatrning chap tomonida joylashgan. Bu bejiz emas, albatta. Chunki kutubxona va teatr aynan madaniyat maskani hisoblanadi.

Sayido Nasafiy (taxallusi, ismi Mirobid) (1637–1710) shoir, Buxoro madrasalarida o'qigan. To'quvchilik bilan kun kechirgan. Turdi Farog'iy bilan do'st tutingan. Uning ta'sirida ijod qilgan. Dastlab asarlarida Ashtarkoni hukumdarlarini madh etgan, ularga madhiyalar yozgan. Asarlaridan biri "Bahoriyat" (Hayvonotnoma) majoziy-munozara asar hisoblanadi. Bu asarning ayrim g'azzallarida o'z davrining ijtimoiy-siyosiy muhitini tanqid qilingan. Asarlari tez va oson o'qilgani uchun xalq ommasiga tez kirib borgan.

Kutubxona 1943-yilda tashkil topgan, ya'ni shu yil shahar kutubxonasi hisoblanib, 1964-yil Surxondaryo viloyatidan ajralib chiqib, mustaqil viloyat



Gulida ABDALIMOVA,
"Kutubxona-axborot faoliyati"
ta'lif yo'naliishi
3-bosqich talabasi

maqomini olgach, Qarshi shahar kutubxonasi negizida faoliyat yurita boshladi. Kutubxonaning dastlabki kitob fondiga nazar tashlaydigan bo'lsak, kutubxona fondi 9000 nusxdan iborat bo'lib, 4 ta kutubxonachi faoliyat ko'rsatgan. Kitob fondini ko'paytirishga vohadagi jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari jalb qilingan. 1965-yilga kelib esa barcha kitoblar soni 87520 nusxdan oshib ketadi. 1980-yil bu kutubxona 500 ming nusxa kitob saqlash uchun mo'ljallangan uch qavatli yangi binoga ko'chib o'tadi. Bu yerda 9 ta bo'lim tashkil etilgan va bu kutubxona M.Gorkiy nomi bilan yuritilib, vatanimiz Mustaqillikka erishgach, qashqadaryolik mashhur adib Sayido Nasafiy nomi beriladi. 2003-yilda viloyat hokimi Nuriddin Zayniyevning qarori bilan viloyat kutubxonasi to'liq ta'mirdan chiqdi. Viloyat rahbariyati bu ishga 250 mln so'm, yangi adabiyotlar, kitob javonlar, zamonaviy texnika xarid

qilishga 80 mln so'm mablag' ajratdi. Kutubxonaning barcha xonalari, 6 ta o'quv zali zamonaviy tarzda bezatildi. 2006-yilga qadar viloyatda 462 ta ommaviy kutubxona markazlashtirilgan kutubxona tizimlariga birlashgan holda faoliyat ko'rsatdi. Ularning umumiyligi 3 mln 200 ming ziyodga yetdi. Kutubxona 2006-yil Qashqadaryo viloyat axborot-kutubxona markaziga aylantirildi.

Hozirgi kunda, kutubxonaning yerto'la qismida Axborot-kutubxona fondlarini saqlash xizmati joylashgan. Bu xizmatda AKMning asosiy jamg'armasi joylashgan bo'lib, 132405 tani tashkil etadi. Kitobxonlarning talabalarini qondirish maqsadida, matbuot nashrlarining yig'ma jildlari saqlanib kelinadi. 2022-yilning fevral holatida AKMning umumiyligi fondi 261340 nuxsani tashkil etadi.

Sayido Nasafiy nomli Qashqadaryo viloyat axborot-kutubxona markazi 2020-2021-yillarda qayta ta'mirlanib, rekonstruksiya qilindi.

2021-yil 30-avgust kuni, Sayido Nasafiy nomidagi Qashqadaryo viloyati axborot-kutubxona markazining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Tadbirni viloyat hokimi Zoir Mirziyayev bayram tabrigi bilan ochib berdi. Tadbirda mehnat faxriyilar hamda yosh kitobxonlar qatnashdi va u yerdagi sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. Bular: zamonaviy sharoitlar va yangidan tashkil etilgan bolalar xonasi, yosh ixtirochilar zali, ilmiy izlanishlar zali, axborot kommunikatsiyalar va raqamlashtirish zali, imkoniyati cheklanganlar zali, nodir nashrlar va adabiyotlar zalidan iborat bo'ldi. Agar siz bu kutubxonaga tashrif buyursangiz, eng avvalo, juda chiroqli binosiga hayratlanasiz. Kitob fondlari bilan tanishganingizda, turli xil yo'nalishdagi adabiyotlarga voqif bo'lasiz. Shu bilan birga, kitobxonlar o'zini qiziqtirgan mavzudagi ma'lumotlardan har doim unumli foydalaninib kelishadi. Kutubxonada har kuni asosiy masalalar haqida yig'ilishlar hamda ma'lum bir mavzudagi tadbirlar bo'lib turadi.

Kutubxonalarning yanada rivojlanishi, yosh avlodni kitoba qiziqtirish, kitobxonlar sonini ko'paytirish, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanish, o'zbek kutubxonasi jahon miqyosidagi kutubxona salohiyatiga yetishi uchun biz bo'lajak mutaxassislar astoydil mehnat qilmog'imiz darkor.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonimizda ilm-u ma'rifatga katta e'tibor qaratilmoqda. Axir zamon talabi ilm, izlanish, yaratishdadir. Ilmga boshlovchi yo'l, kutubxona olib boruvchi yo'ldan boshlanishi kerak. Dunyoda millionlab kitoblar bor, ularda milliardlab ilmlar yashiringan. O'yashimcha, qaysi davlatning kutubxonalari ko'p bo'lsa, o'sha davlatning kelajagi porloq bo'ladi. Kitob-aqlning bezagi, kutubxonalar esa aqlli odamlarning eng go'zal koshonasidir. Uyida ozgina bo'lsa ham kitoblar terilgan javoni yo'q oila bo'lmasa kerak. Menimcha, tashrif buyurgan mehmonlarning nazari tushadigan birinchi joy o'sha javonlardir. Kitobsiz uyning qalbsiz tanadan farqi bormi? Ideal hayot uchun kitobdan yaxshi narsa bormi?

Argentina shoiri Jorj Luis Borges: "Men doimo jannat kutubxonaga o'xshagan joy bo'lsa kerak, deb o'ylayman", – degan edi. Bu sehrli jumalarga qo'shilaman. Jannat orzusida yashayotgan har bir inson ilm talabida bo'ladi. Xoh u diniy, xoh dunyoviy ilm bo'lsin. Zero, ilm olish har bir muslim va muslima uchun farz, deyilgan. Kitob o'qib lazzatlanmagan insonni sog'lom inson, deyish mumkinmi? Albatta yo'q. Bugun farzandlarimizga kitob o'qish bilan birga, uqishni ham o'rgatishimiz kerak. Ma'nан yetukitoblarni tanlab o'qish kerak. Mantiqsiz sahfalarga tikilib turishdan

nima naf bor. Agar farzandlarimizga yoshligidan mutolaani o'rgatsak, yoshiga mos, o'qiganda tushuna oladigan kitobni tanlashni o'rgatsak va eng muhimmi kitobga mehr uyg'ota olsak, bu bizning eng katta yutug'imir bo'ladi. Hozirgi kunda dunyoni kitob o'qiganlar boshqaradi.

Bugungi tahlikali va xafvli zamonda yosh avlodning mafkurasiga ta'sir o'kazishning yo'llari ko'payib bormoqda. Birgina "Vaqt og'risi" hisoblanishga ijtimoiy tarmoqlar va ulardan qurol sifatiga foydalanayotgan johiliyatni keltirishimiz yetarli. Bir tomchi neft dengizni ifloslantirganidek, ikki

so'zli yolg'on xabar dunyoda shov-shuv ko'tarilishiga sabab bo'imoda. Yetti yoshdan yetmis yoshgacha insonlarning bunga aldanib qolayotgani esa achinarli holat.

Aytmoqchimanki, komilikkayetishishda kitobdan o'zga najot yo'q. Buyuk muta-



Munira RAHIMOVA,
"Kutubxona-axborot faoliyati" ta'lif
yo'naliishi sirtqi 2-bosqich talabasi

Kitobdag'i taqdirlar kimniki? (Bir asar xususida maqola)

Kutubxonaga qachon oxirgi marta kirib, kitob tanlab o'qidingiz? Oxirgi o'qigan kitobingiz qahramonlari yodingizda qoldimi? Hech asar qahramonlarining taqdiri sizni o'ylantirganmi? Ular kimlar? Hayotda bormi yoki yozuvchi ularni hayotga qo'shyaptimi? Shu kabi savollarni o'ylab ko'rganmisiz?

Men yaqinda Paola Koeloning "Iblis va Prim xonim" asarini o'qib tugatdim. Menimcha, yozuvchi asar voqealarini real hayotdan olgan. Joy nomlarini balki to'qigandir, lekin dunyoning qayerida shunday Viskos degan joy borligiga, unda 281 nafar aholi yashashiga, bu joyga ko'chib kelganlar uzoq turmasligi, yoshlar esa katta shaharlarga borib qaytib kelmasligi juda chiroqli tarzda yozilganiga amin bo'ldim. Boshida bu asarni o'zimni majburlab o'qiy boshladim. Biroq asarni o'qib chiqib, afsus qilmadim. Chunki asar meni o'ziga maftun qila oldi. Unda tasvirlangan voqealar hayratimni oshirdi.

Asarni o'qisangiz, bir maromda umr kechiradigan Viskosliklar bu yerga qachonlardir iblis kelishini va ular kutmagan nimalardir sodir bo'lishini oldindan bilishadi. Viskosliklar atrofida joylashgan qo'shni qishloqlar allaqachon shaharga aylanib, yangi texnologiyalar kirib kelgan bo'lsa-da, faqatgina ular ota-bobolaridan qolgan urf-odat va an'analarini saqlab qolgan. Ular bu ota makonni tish-tirnog'igacha asrab qolishga harakat qiladi. O'zgartirishni va o'zgarishni xohlamaydigan odamlar ekanligini bilib oldim. Asardagi qahramonlar taqdirlini va qismatini betakror tasvirlagan yozuvchi yovuzlik va ezzulik, nafs va sabr, nafrat va muhabbat, iymon va gunoh singari umuminsoniy mavzular to'g'risidagi bahsni aks ettirgan. Asar haqida juda ko'p so'zlashim mumkin, lekin men sizlarga bu asarni o'qib chiqishni va asardagi taqdirlar kimlarga tegishli ekani haqida o'ylab ko'rishingizni maslahat beraman.

Ilmdan bir shu'lal dilga tushgan on,
Shundan bilursankim ilm bepayon.
Alisher NAVOIY

KITOBNING QUDRATI



Behruz O'TKIRQULOV,
"Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish" ta'lif
yo'naliishi 1-bosqich talabasi

fakkirlarimiz, o'tmishning va bugunning daholari, dunyoni lol qoldirayotgan olimlar bularning hammasi mutolaa orgali shu darajaga etganlar. Xulosa qilib aytamanki, O'zbekiston yoshlari "Uchinchi Rennen" yo'lida, albatta, ilm olishdan to'xtamasligi kerak!



Zilolabonu XOLIQOVA,
“Madaniyat va san’at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish” ta’lim
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Bahor o‘ylari

Xayollar to‘dasi olib qochadi,
Bag‘rikeng samo ham quchoq ochadi.
Boshimning ustida yorug‘ kun tilab,
Quyoshim ezbilik nurin sochadi.

Ko‘zimda chaqnaydi umid uchquni,
Yuragim topganday go‘yo erkini.
Erkalab sochimni, har yon tortqilab,
Yuzimni silaydi shamol epkini.

Gulduros qarsaklar chalganday bo‘lar,
Tizilgan teraklar yaproqchalari.
O‘zini har yonga urib jar solar,
Bahorning eng uchar xabarchilar.

Ajib tuyg‘ularga oshnoman faqat,
Qalbimda nish otar sirli muhabbat.
Ko‘klamoy ezbilik ulashib tolma,
Elimga baxt olib kelgin toabad.



Oqila ORTIQBOYEVA,
“Madaniyat va san’at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish” ta’lim
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Men shoir emasman ...

Bu go‘zal hayotning nurli tongida,
Nafis so‘zlar ichra yozardim dardim.
She‘riyat makonin sirli rangida,
Tundan to tongacha ilhom axtardim.

Satrlarim mungli dardim kuylashib,
Hayot varaqlarim asta bo‘yardi.
Tunlari qalamim bilan sirlashib,
Qog‘oz ham she‘rlarga rosa to‘ldi.

Lek shoir emasman, bu menga orzu,
Qalbim she‘riyatga shamoldek shoshar.
Zilol suv, buloqlar bamisli ko‘zgu,
Qog‘ozdan dardlarim ummondek toshar.

Shoир bo‘lmasam-da, majnuntol suyar,
Sochlariн yoygancha dardimga sherik.
Yonidagi anhor jilmayib qo‘yar:
— Shoир vafot etsa, satrlar tirik.

Shahnoza RO‘ZIYEVA,
“Kutubxona-
axborot faoliyati”
ta’lim yo‘nalishi
1-bosqich talabasi



Vatan haqida

Aslida men uni har chog‘ sevaman,
Sevish-ku, qonimga singgan aqida.
Balki boshqalardan kamroq sevaman,
Mendan she‘r so‘ramang, Vatan haqida!



Onam yuzlarida ko‘rganman uni,
His etib otamning vazmin gapida.
Lekin yozolmayman eplab ham shuni
Mendan she‘r so‘ramang, Vatan haqida!

Zafar quchganida charaqlagan ko‘z,
Quvonchdan titragan g‘olib labida.
Ko‘rdim, lek topmadim shu holga mos so‘z,
Mendan she‘r so‘ramang, Vatan haqida!

Har o‘tgan kunimdan minnatdor bo‘lib,
Yayrab yashayapman uning bag‘rida.
Kim yozar yuragi tursa lim to‘lib,
Mendan she‘r so‘ramang, Vatan haqida!



Hafiza ALIBEKOVA,
“Madaniyat va san’at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish” ta’lim
yo‘nalishi 1-bosqich talabasi



Befavo dunyo

Kulsam ko‘zlarimni yoshlatar dunyo,
Ne sabab, qalbimga tosh otar dunyo.
Goh shirin, goh achchiqday,
Tuyular dunyo, ro‘yoday go‘yo.

Onamga ham, otamga ham bevafo dunyo,
Muhabbat dardlari bedavo go‘yo.
Alamlar, dardlar, yoshlari daryo,
Quvonchlar bevafo, bevafo dunyo.

Faqat mehr chin-u, dunyo bevafo,
Faqat she‘rlarim ovunchim go‘yo.
Allohim mehiringni ayama aslo,
Odamlar bevafo, bevafo dunyo.

Nur taratar orzular qalbda doimo,
Maqsadga yetishmoq mashaqqat, shiddat.
Yuksak sabr ortidan kelgay toabad,
Ulkan mukofotlar olgaymiz albat!

Nizomiddin ESHMURODOV,
“Madaniyat va san’at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish” ta’lim
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Yolg‘iz ayol

Tog‘ning tepasida ohu in qurgan,
Biroq unda ohu yolg‘iz yotmaydi.
Yolg‘iz bolasini quchoqlab yotgan,
Yolg‘iz bir ayolning tongi otmaydi.

Yo‘qotgan uyqusin topolmay tunda,
Yostig‘in quchib yig‘lar, ehtimol.
Uning ham haqqi bor baxtli yashashga,
Uning ham orzusi, bo‘lish barkamol.

Yomon so‘z yetmasin yolg‘iz ayolga,
Dashnomlarning o‘zi otilgan o‘qdir.
Sabrini sinamang yolg‘iz ayolning,
Sabot tilaguvchi yo‘ldoshi yo‘qdir.

Yolg‘izlik yo‘lini to‘sgani yetar,
Yonma-yon kelsangiz unga yo‘l bering.
Hayotning zavqini his etsin u ham
Tikonlardan holi atirgul bering.



Odiljon AHADOV,
“Qo‘g‘irchoq teatr aktyorligi” ta’lim
yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Savlatim, davlatim – dadam!

Boshimdagi savlatim – dadam,
Mehri daryo davlatim – dadam.
Sizga qalqon yoningizdamان,
Shu onda men baxtni sezaman.

Quyosh kabi mehringiz tafti,
Siz borlig‘im hayotda asli.
Garchi shukr deyman Allohga,
Axir dadam yonimda har dam.

Bundan ortiq baxt bormi yana,
Farzand bo‘lib bo‘lay parvona.
Mehrim kokilidan uzib bir tola,
Dadamga deb she‘r bitdim yana.

She‘rlarim ko‘ngilning cho‘qqilaridan,
Bu qog‘oz qa‘riga qadam tashlaydi.
Dadam mening borlig‘im desam,
Qancha ta‘rif etsam so‘zim yetmaydi.

Shoshib yashadi...

Umr nima? Umr – bir yumaloq tugmacha yo'l. Umr nima? Umr – ikki eshik orasi. Umr nima? Umr – oqar daryo. Umr nima? Umr – rizq-nasiba. Yaratganning inoyati bilan inson bir asr umr ko'rsa ham bir yumaloq tugmacha yo'l masofani bosib o'tgandek bo'lar ekan. Xuddiki, foni yunyodan u eshikdan kirib, bu eshikdan chiqqandek xayolotda o'tar ekan. Yuz yil yashasa ham bir tutam umr ko'rgandek, bir ming ikki yuz oyni oqar daryodek oqib ketganiga hayratlanlar ekan. Dunyoga kelmoq va yashamoq Tangri zaminga sochgan rizq-nasibani termoq demakdir. Qachonki, banda so'nggi nasibani terar ekan, demak u so'nggi nafasni yashayapti. Umr xoh o'ttiz, xoh ellik, xoh yetmish, xoh to'qson bo'lsin, sanasi bilan emas, mazmuni bilan qiymatli va ahamiyatli. Insonning qancha emas, qanday yashab o'tgani muhim.

**Ozoda SHOBILOLOVA,
teatrshunos**

Umrni odamiylik mulkiga to'ldirgan inson – naqshin inson. Umrni har bir lahzasini g'animat bilib, ezgu amallarga, fayz-barakaga bezagan inson – baxtli inson. Umrni kiprikda qalqib turgan yosh, deb savob uchun shoshgan inson – jannatiy inson. Yaxshilik qilib, yaxshilikni daryoga tashlaydigan inson – daryo inson. O'zidan ham ayirib, o'zgalarga tutadigan, ilihadigan inson – oliyimmat inson. Zaminga ezgulik urug'ini sochadigan, insonlarga ezgulik nurini taratadigan inson – oliyanob inson.

Mana shu insoniy fazilatlarning bari marhum ustoz san'atkor, O'zbekistonda xizmat ko'sratgan artist Fathulla Mas'udovning fe'l-atvorida mujassam edi. Mujassam bo'lganda ham ortig'i bilan mujassam edi. Men bilgan Fathulla Mas'udov avvalo inson, keyin rahbar edi. Besh yil mobaynida, 2015–2020-yillar O'zbek Milliy Akademik drama teatrining direktori lavozimida faoliyat yuritgan bo'lsa, kibr otiga minmadi, mansab shohsupasidan havolaniib ketmadi. Aksincha, oddiylikni va soddalikni saqlab qoldi. "Men rahbarman-ku", deya o'ziga bino qo'ymadni. Sochni silliq tarab, atir purkab, ohorli shoyi kiyimlarni kiyib, savlat to'kib yurmadi. Ishongsangiz agar, jaydariligicha qoldi. Ortiqcha hasham, o'zini namoyish etish unga mutlaq yot edi. Tadbir, bayram, ijodiy uchrashuv, majlis-yig'ilishlarda ko'pincha egnida ko'k rangdag'i kostyum-shimda ishtirot etardi. Bu inson mening ko'z oldimda ana shu ko'k rangdag'i kostyum-shimda, shoshib turgan qiyofada muhrlanib qoldi.

O'rta bo'yli, oq yuzli, ikki yanog'i qizil, mosh-guruch sochlari o'ziga ulug'vorlik baxsh etgan, yuz-ko'zi to'la nur bo'lgan Fathulla Mas'udov buncha va qayga shoshmasa... Kabinetga shamlodek uchib kirardi-yu, yana shamlodek uchib chiqib ketardi. Taxlanib turgan ishlarni chaqqonlik bilan shoshgancha hal qilardi-yu, endi navbatdagi ishlarga, ijodiy jarayonlarga yugurgilab ketardi. Undagi doimiy shoshilinch holatlarni kuzatib: "Fathulla Mas'udovga xuddiki, dunyo tugab qolayotgandek shoshgani-shoshgan. Agar oyog'idan ushlab qolmasangiz, osmonqa uchib ketadi", deya onamga so'z ochardim. To'g'risi, bu insondagi shoshish holati qandaydir bir boshqacha... Go'yoki, hamma narsa intihosiga yetayotgandek... Hamma narsa o'lchab berilgandek...

Bir kuni qanot qoqib turgan qushdek suhbatimizda: "Bugun nafas olyapmiz, ertaga Alloh biladi, bormizmi-yo'qmizmi", deb aytgan gapi menga qandaydir bir sirli erish tuyulgan. Yuzma-yuz suhbatmi yoki telefon orqali suhbatmi, albatta oxiratdan, boqiy dunyodan, Allohnning karamidan bir shingil bo'lsa ham so'zlab o'tardi. Pand-nashatlar ham ilohiy ohangga o'ralgan bo'lardi: "Ozoda, singlim. Yomonlik qilganga, siz yaxshilik bilan javob qaytarling. Narigi dunyoda hamma o'z qilmishlariga yarasha javob beradi", "Singlim, Allohnning huzuriga yorug' yuz bilan boray desangiz, faqat

yaxshilik qiling, savob ish qiling", "Ozoda, men sizni yaxshi ko'raman, singlim. Sizga akalik maslahatim, hayotda dilozor bo'limgan. Kechiruvchan bandalarini O'zi ham gunohlaridan kechadi", "Singlim, Allohn seving. Qalbingizda doimo Allohg'a bo'lgan muhabbatni saqlang. Ibodatga davomli mustahkam bo'ling".

Bu inson insoniylik fazilatdan g'azna edi. Qay birini yozay-u, qay birini aytay? Xohlaysizmi-xohlamaysizmi rahbarlik va kursi insonga kibr soyasini tashlaydi. Bu holatga kasb va ko'cha ishlari yuzasidan ko'p bora duch kelganman. Ammo Fathulla Mas'udovning rahbarlik to'ni qizil emas, aksincha yashil edi. Rahbarlikda ko'ngli ham, chehrasi ham, qo'lli ham ochiq ediki, ish so'rab eshigini qoqqanlarni noumid qaytarmasdi. Darrovsda bisot xaltani kovlab, ish so'rovchiga: "Boriga baraka", deya nimanidir ilinib turardi. To'g'ri-da, odamzoddan hamma narsa qolib ketadi-ku! Ish tugul, hatto, dunyo ham...

Fathulla Mas'udovga xos xislat ko'n-gil tubidagi javohir so'zlarni, foydali maslahatlarni, qimmatli pand-nashatlarni insonlarga bajonidil ularash edi. Jahli ham, tanbeh va dakkisi ham beg'araz edi. Ish bor joyda, albatta, kamchilik bo'ladi. U-bu kimdan xafa bo'lib koyib bersa, hech qancha vaqt o'tmay o'sha insondan dilini og'ritib qo'yanligi uchun uzr so'rardi. Kechirim yo'lini kasbiga bog'lab, aktyorlarcha hazil-huzul bilan vaziyatni yumshatar edi. Yana o'sha gap. Aslida bu insonning jahli ham, tanbeh va dakkisi ham beg'ubor, shaffof edi. Ko'ngli va chehrasi ochiqligidan, tabiati muloyimligidan qabulidagi insonlar unga haddi sig'ib murojaat etardi. Xoh teatrda xodim bo'lsin, xoh tashqaridan kelgan mehmon bo'lsin, katta bir tashkilotning



direktori, deputat, katta san'atkor Fathulla Mas'udovga nisbatan qo'rquv, hayajon, hadik hislari bo'lmashdi. Aksincha, har bir insonda unga nisbatan mehr tovlandardi, hamma uni birdek hurmat qilardi. Xuddi shunday, o'zida ham insonlarga bo'lgan mehr bepoyon edi. Mehri hammaga yetardi. U farrosh – bu san'atkor, u qashshoq – bu badavlat, u miskin – bu omadli degan tushunchalar xayolining ko'chasiga ham kelmasdi. Aksincha, qo'lli kaltalarga qo'l uzatardi. Mazlumlarning ko'nglini kaftida tutardi. Dag'al qilib aytganda, shohga ham, gadoga ham barobar edi. Hammani bir ko'zda ko'rardi.

Undagi yana bir go'zal xislat – mehmono'st edi. Dasturxonadagi nonni, nozu ne'matni ko'pchilikka ilinar edi. Dasturxonga ko'pchilikni rizqi qo'shilsagina, xotirjam taomlanar edi. Aksi bo'lsa, tomog'idan bir qultum suv ham o'tmasdi. Va mana shu dasturxonadan ko'pchilik rizqlanayotganidan xursand bo'lardi. Dasturxon yozishni, yorbiodarlarni, mehmonlarni noz-ne'matlar bilan siylashni yaxshi ko'rardi.

Insonning qalbi, ichki dunyosi chehraga aks-sado berar ekan. Uning qalbi nurli bo'lgani bois, yuzi ham to'la nur edi. Mendagi taassurot shuki, bu insonning yuzidan quyosh nuri, quyosh tafti kelardi. Fayz-barakali inson edi. Hech vaqt moddiyatning ketidan quvmagan. Har joyda unga rizq-nasiba eshiklari ochiq bo'lgan. Dublyaj sohasi deysizmi, radioda hikoya-qissalar o'qish deysizmi, suratga olish maydonchasi deysizmi, teleko'rsatuvarlar

orgali mutolaa zavqi, mushoira davrasi deysizmi, bariga talab va taklif bilan tashrif buyurar edi. O'zbegimning yaxshi kunlari, to'y-hashamlarga to'yichivonlar niyat qilib, eshidigan olib ketar edi. Viloyatning chekka qishloqlari to'ylarigacha qadami yetgan, bu insonning. Xalqqa xizmat qilayotganidan, xalqqa mehr-muhabbat ulashayotganidan Yaratganga hamd-sanolar keltirib, taqdiridan minnadtor bo'lib, shukronalik hissi bilan yashab o'tdi, bu san'atkor.

Ko'nglimdag'i shu gapni ham aytishim kerakki, Fathulla Mas'udov Alloh siylagan, suygan, nazari tushgan bandalardan biri edi. O'zi ham Allohn sevib, dilida ham, tilida ham doimo Rabbini zikr etib, besh mahal ibodatga shay-muntazir bo'lib, bir mo'min-solih insonning hidoyat yo'lidiagi ezgu amallarining vojibida yashab o'tdi. Inson ko'nglini Ka'badek muqaddas bildi. Yer yuziga yaxshilik ulashish uchun kelganini doimo yodda tutdi. Insoniy illatlar – yolg'onchilikdan, xiyonatdan nafratlandi. Rostgo'ylik va halollikni shior etdi. Oilada ham, ijodda ham, ishxonada ham soflikni, poklikni, alifdek to'g'rilikni ulug'ladi. Rahbarlikda tarozini teng tutdi. Six ham, kabob ham kuymasligi uchun o'zi kuyib-pishdi. Hammani bag'riga birdek tortdi. Teatr uchun, ijodiy va ishchi xodimlar uchun qalbini, yuragini, bor mehrini berdi. U ana shunday mehri daryo inson edi...

Shoshib yashagani bejiz emas ekan... Haqiqatan ham vaqt(soati o'lchovli ekan... Hammasiga ulgurishi kerak ekan... Oxirat eshik qoqib turgan ekan... Ajal etagidan tortayotgan ekan... Hammaga kerak bo'lgan Fathulla Mas'udov ayni damda Allohg'a ham kerak ekan... Noiloj, Allohnning aytgani, bitgan taqdiri... Foni yunyodagi rizq-nasiba, nafas tugayotgan ekan...

Yolg'oni yomon ko'rgan Fathulla aka hammani "aldab" ketdi... Ketdi-yu, ortidan faqat chiroyli esdalik, shirin xotiralar tashlab ketdi... Endi bu inson boy ijodiy meroslarida aks-sado beradi. Teleekran orqali xonadonimizga tashrif buyuradi. Radioeshittirish orqali o'zbek xalqiga hali ko'pdan-ko'p hikoya-qissalar o'qiydi. Ortidan qolgan ahliali ayoli, umrining davomchisi mo'min-soliha farzandlari, avlod-nasli nabiralar qalbida yashaydi. Izdosh shogirdlari xotirasida mangu muhrlanadi. O'zbek teatr va kino san'atining tarixida so'nmas yulduz bo'lib porlaydi. Milliy teatr dargohida qolgan izlari hech vaqt o'chmaydi. Aksincha qadrlanadi, asrab-avaylanadi. Uni o'zbek xalqi hamisha yaxshi ko'rib, ardoqlaydi. Axir u o'zbekning erka "Toychog'i-ku. O'zbek dublyaj san'atiga benazir hissa qo'shgan sohir ovoz sohibi-ku. O'zidan so'ng bir dunyo mehr tashlab ketgan mehrparvar-ku. Yana shuni aytgan bo'lardimki, u bir keldi-yu, bir ketdi...



Iqtidorli talabalar klubi – BIRLASHISH NUQTAMIZ BO'L SIN!

Stiv Jobs haqidagi filmda talabalarning ixtiolarini namoyish etishi uchun minbar tashkil etilgan bo'lib, Stivga tegishli loyihani uning do'sti ilk bor o'sha yerdanamoyish qiladigan sahna bor. Xuddi shu epizod ko'z oldimdan hech ketmay, ayni shunday klub tashkil etishni ko'ngilga tugib qo'ygandim. Taqdir taqozosi bilan faoliyatimiz, bu maqsadni amalga oshirish mumkin bo'lgan vazifa bilan uzbek, bog'lanib, bugun institutimizda iqtidorli talabalariga startap loyihalarini namoyish etishi uchun ana shunday klubni tashkil qildik.

Klubning asosiy vazifasi iqtidorli talabarni topish, kashf etish va loyihalarini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Bu yerda talabalar har qanday yo'nalishdagi o'z iqtidorini namoyish qilishi va mualliflik loyihasi bilan ishtirok etib, xato-kamchiliklarini bilib olishi, tajriba almashishi va salohiyatini oshirishiga imkon yaratiladi.

Iqtidorli talabalar klubining keyingi rejalaridan turli soha vakillari ishtirokida mahorat darslarini o'tkazish, muhokamalardan so'ng tayyor holga kelgan loyihalarni taalluqlilik darajasiga ko'ra, davlat va xususiy tashkilot vakillariga taqqid etish kabi vazifalar o'rinni oлган.

Shuningdek, iqtidorli talabalar bilan poytaxt, respublika va xalqaro miqyosda gastrol safarlarini uyuştirish ham rejalashtirilmoqda.

Klub yig'ilishlarida respublika va xalqaro miqyosdagi ijodiy tanlovlardan haqida talabalariga e'lon qilinib, tanlov shartlari, tafsilotlari bilan yaqindan tanishtiriladi. Jumladan, ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanib kelayotgan xotin-qizlarning startap loyihalarini moliyalashtirishga qaratilgan "Ayollar biznesiga birinchi qadam" tanlovi, Orol dengizi muammolari yechimiga va uning oqibatlarini kamaytirishga yo'naltirilgan eng yaxshi innovatsion loyihalar saralab olinib, g'olib talabalar Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'yinoq tumanida ishtirok etishi mumkin bo'lgan "Yoshlar Orolni asraydi" aksiyasi, har bir olyi ta'limga muassasasida tashkil etilayotgan "Intellektual haftalik" tadbirdari, haftalik doirasida ilmiy konferensiyalar, seminarlar, soha yetakchilarini bilan uchrashuvlar, shuningdek, "Rector kubogi" uchun Zakovat o'yinlari kabi tanlovlardan talabalar birinchi bo'lib xabardor qilinadigan minbar bo'lishi ko'zda tutilgan.

Shuningdek, ushbu klub doirasida "Ilmiy maqola qanday yoziladi?"

hududida o'tkaziladigan ilmiy tadbirlarda ishtirok etish, ilmiy-tadqiqot ishi bo'yicha loyihalarni amalga oshirish, shuningdek, tajriba almashishni nazarda tutuvchi "Akademik harakatchanlik" dasturi, ilmiy innovatsion sohada faoliyat yuritib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning texnologik bilimlarni boyitish hamda innovatsion loyihalarini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan "TechnoWays" texnologik rivojlanish marafoni, ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanib kelayotgan xotin-qizlarning startap loyihalarini moliyalashtirishga qaratilgan "Ayollar biznesiga birinchi qadam" tanlovi, Orol dengizi muammolari yechimiga va uning oqibatlarini kamaytirishga yo'naltirilgan eng yaxshi innovatsion loyihalar saralab olinib, g'olib talabalar Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'yinoq tumanida ishtirok etishi mumkin bo'lgan "Yoshlar Orolni asraydi" aksiyasi, har bir olyi ta'limga muassasasida tashkil etilayotgan "Intellektual haftalik" tadbirdari, haftalik doirasida ilmiy konferensiyalar, seminarlar, soha yetakchilarini bilan uchrashuvlar, shuningdek, "Rector kubogi" uchun Zakovat o'yinlari kabi tanlovlardan talabalar birinchi bo'lib xabardor qilinadigan minbar bo'lishi ko'zda tutilgan.

Bir so'z bilan aytganda, institutimiz iqtidorli talabalarining salohiyatini yuzaga chiqarish uchun bo'limimiz kreativ yondashuv bilan yangicha g'oyalarni asosida, ish faoliyatini davom ettirmoqda. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining nufuzini yuksaltirish yo'lida barcha talabalarini, magistrlar va tadqiqotchilarini, professor-o'qituvchilarini, muhtaram ustozlarni iqtidorli talabalar klubida ko'rishdan mamnun bo'lamicha.



**Shavkat DO'STMUHAMMAD,
Iqtidorli talabalarining ilmiy
tadqiqot faoliyatini
tashkil etish bo'limi boshlig'i**

mavzusida mahorat darslarini muntazam o'tkazib borish rejalashtirilgan.

Mahorat darslariga dastlab institutning professor-o'qituvchilarini, keyinchalik esa O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va boshqa nufuzli tashkilot vakillari, shuningdek, ilmiy maqolalar chop etishga mo'ljallangan jurnal tahririyatlari xodimlari taklif etilishi ko'zlangan.

Bir so'z bilan aytganda, institutimiz iqtidorli talabalarining salohiyatini yuzaga chiqarish uchun bo'limimiz kreativ yondashuv bilan yangicha g'oyalarni asosida, ish faoliyatini davom ettirmoqda. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining nufuzini yuksaltirish yo'lida barcha talabalarini, magistrlar va tadqiqotchilarini, professor-o'qituvchilarini, muhtaram ustozlarni iqtidorli talabalar klubida ko'rishdan mamnun bo'lamicha.



**Izzatillo OLIMOV,
"Kutubxona-axborot faoliyati"
ta'limga yonalishi 1-bosqich talabasi**

O'sha lahza...

Dam olish kuni edi. Zerikkanimdan toza havoda aylangim keldi. O'yladim, tashqarida nima bor? Undan ko'ra bir metroga tushib aylanib chiqsam, shaharning go'zalliklaridan bahramand bo'lsam juda ham ajoyib ish bo'lardi, degan fikr xayolimdan o'tdi. Ustboshimni to'g'irlab, xonadan pastga, pastdan ko'chaga, avtobus bekatni tomon yurdim. Bekatda oro-pardozi o'ziga yarashgan bir go'zal qizni ko'rdim. Aftidan avtobusni emas, balki kimnidir kutayotgan bu hurliqo ondasonda qo'lidagi soatga qarab qo'yar va qo'lidagi kitobni o'qishga kirishardi. Oradan hech qancha vaqt o'tmay, uning yoniga bir yigit keldi. So'ngra ikkisi imo-ishoralar bilan so'zlasha boshladi. Men hayron bo'ldim. Nega bular bunday so'zlashyapti?

Bitta avtobusga chiqdik. Ularni kuzatib ketdim. "Talabalar shaharchasi"da manzilga etdilar. Men ham shu bekatda tushdim. Yigit imo-ishoralar bilan qizni bir muddat kutib turishga chorladi. Gul do'konidan tovlanib turgan qrimizi lolalarni olib chiqib, qizga hadya etdi. Qiz nihoyatda sevindi. So'ngra ikki qalb so'lim bog' tomon ravona bo'ldi.

Biz aqli raso, sog'-salomat insohlar hayotni tushunish, uni idrok etish o'rniiga pul, boylik, obro'-e'tibor ortidan quvamiz. Aslida haqiqiy baxt mehr-muhabbat va oqibatdadir. Men o'sha kuni va o'sha lahzada bu ikki qalbni bir baxt ortida ko'rdim.



**Mohinur YORQULOVA,
"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil
etish va boshqarish" ta'limga yonalishi
1-bosqich talabasi**

Bugungi kunda olyi ta'limga yonaligi asosiy maqsadi, Yangi O'zbekistonimiz uchun yetuk salohiyatga ega bo'lgan kadrlar tayyorlashdan iboratdir. Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalardagi taraqqiyotini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari ta'limga tizimi safidan munosib o'rinnegallashga intilish yo'lidi keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishdir. Ayniqsa, dars jarayonlarida jahoning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, interfaol darslarni tashkil etish, amaliyat va nazariyotning mutanosibligini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Izlanaylik, intilaylik...

Bugungi kunda esa talabani 80 daqiqalik o'quvmashg'uloti davomida, shunchaki tinglovchi sifatida auditoriyada ushlab turish mushkul ish. Negaki, u ko'p hajmli, tezkor axborot oqimi mavjud bo'lgan muhitda yashamoqda. Ta'limga berish jarayonida nazariyot va amaliyat birligini ta'minlagan holda interfaol amaliyat ta'limga usullari yordamida aynan mana shu masalaga yechim topish mumkin.

Tan olish kerakki, taraqqiyot asosi ta'limgadir. Butun dunyoda shunday. Xuddi shu kabi bizning olyi ta'limga muassasamizda ham talaba-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun turli shart-sharoit yaratib berilmoqda. Jumladan, talabalar turar joyida yoshlar uchun kutubxonalar, axborot-resurs markazlari, o'quv binolaridagi kompyuter xonalari, "Muhammad Yusuf" ko'shki, shuningdek, taburetko mashqlari uchun tayyorlangan maxsus xonalari, o'g'il bolalar uchun maxsus futbol maydonlari ham talabalariga topshirilgan.

Institutimiz Yoshlar Ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchilarini tomonidan tashkil etilgan "Parvoz" volontorlar jamoasi hamda institut hududi va yon-atrofni muhofaza qilish, tozaligiga e'tibor berish uchun ko'ngilli talabalaridan iborat guruhlar tuzilgan. Bu jamaolar turli tadbir va festivallarga, shaharlarga sayohat, keksalar holida xabar olish, nogironlarning ko'nglini ko'tarish kabi savobli hamda maroqli ishlarga qo'l urishgan. Bu juda keng imkoniyat va bundan to'g'ri foydalanish zarur. Ammo shu kabi shart-sharoitlardan o'z o'mida foydalanmaydigan ba'zi bir talabalar ham mavjud. Bo'sh vaqtlarini telefon

o'yinlari yoki ota-onasi bergen moddiy mablag'ni to'g'ri sarflamay turli xil "ko'ngil ochar" (aslida esa buni ko'ngil ochar joy, deb ham atash nojoiz) joylarda o'tkazmoqdalar. Uzoqdan kelganlar uchun institut tomonidan vaqtinchalik turar joylar bilan ta'minlanganliklariga qaramay, o'z turar joylarini toza tutmasliklari, yotoqxona tartib-qoidalariga amal qilmasliklari, yotoqxona hamda institut mulkiga ziyor yetkazish kabi holatlar uchramoqda.

"Hayotni sevsang, vaqtini boy berma, chunki vaqtidan hayot yaratadi", degan ekan faylasuflardan biri. Inson uchun eng qimmatli narsa vaqt va bu ayni haqiqatdir. Yo'qotilgan har qanday narsani, masalan, boylik, amal yoki uy-joyni topish mumkin, lekin o'tgan vaqtini topish yoki orqaga qaytarishning iloji yo'q. Shunday ekan, vaqtning har bir daqiqasidan unumli foydalananmog'imiz davr talabidir.

Biz yoshlarda orzularni ro'yobga chiqarish, ularga tezroq erishish uchun imkoniyatlar bor. Lekin bu intilishlar samarali bo'lmasa, kunlar ketidan kunlar, oylar ketidan oylar o'tadi.

Faylasuf va shoir Ralf Uoldo Emersonning "Hayot – boshidan oxirigacha tajriba. Tajriba qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi", degan ajoyib iborasi bor. Shunday ekan, ko'zlangan maqsadga erishish uchun vaqtini to'g'ri taqsimlash kerak. Bo'sh vaqtimizni, bebafo umrimizni telefon, kompyuter, ijtimoiy tarmoqlarga (telegram, instagram, facebook) bag'ishlamaylik. Aksincha, ota-onamiz hamda vatanimiz oldidagi burchni ado etish uchun astoydil harakat qilaylik. Biz yoshlar hozir xuddi bir chinor kabi kelajak avlod mustahkam ildiz bo'lishimiz kerak, deya baralla ayta olaman.

TIL – millat ko‘zgusi

Mamlakatimizning qonun yo‘li bilan muhofaza qilinadigan mustaqillik ramzlaridan biri – o‘zbek tilida xalqimizning mentaliteti, xarakteri, an‘analari, urf-odatlari, qadriyatları aks etadi. Darhaqiqat, ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyining: “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmadr”, degan so‘zlarida hikmat mujassamdir. O‘zbek tilini milliy boyligimiz sifatida asrash, uni kelajak avlodga bus-butun yetkazish ajodolar ruhi oldidagi ma’naviy burchimiz hisoblanadi.



**Saida ERGASHEVA,
“Kutubxona-axborot
faoliyi” ta’lim
yo‘nalishi 3-bosqich
talabasi**

Davlatimiz rahbari o‘zbek tili bayrami munosabati bilan xalqimizga yo‘llagan tabrigida ta’kidlaganidek: “Hozirgi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan ezgu intilish va harakatlarimiz hal qiluvchi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bu

yo‘lda milliy o‘zligimiz, g‘urur-iftixorimiz timsoli bo‘lgan ona tilimiz, hech shubhasiz, beqiyos kuch-qudrat va ilhom manbayi bo‘lib xizmat qiladi”.

Til – millat g‘ururi. Ona tilimizning qo‘llanish doirasasi tobora kengayib borayotgani, nufuzli anjumanlar, xalqaro sport musobaqalarida o‘zbekona so‘zlar yangrayotgani, chet ellarda o‘zbek tilini o‘rganuvchilar soni ortib borayotgani barchamizni mammun etadi. Ayni chog‘da aynan davlat tili qoidalariga amal qilmaslik oqibatida, ayrim xato va kamchiliklarga yuzaga chiqmoqda. Bu boradagi ba‘zi mulohazalarimni bayon etmoqchiman.

Barchamizga ma‘lumki, shahar ko‘chalaridagi rang-barang ko‘rinish va turfa mazmundagi yozuvlar, binolarning tashqi tomonida o‘rnatalgan lavhalar, do‘konlar peshtoqiga bitilgan atamalar, mahsulotlar va ko‘rsatiladigan xizmatlar reklamasi joylashtirilgan bannerlar ko‘pchilikning e’tiborini jaib etish



bilan birga, xalqimizning madaniy-ma‘rifiy saviyasini ko‘rsatadigan o‘zga xos ko‘zgu hisoblanadi.

Shu o‘rinda yosh avlodning xat-savodiga, ruhiyatiga, tarbiyasiga ko‘cha-ko‘yda ko‘rganlari ham ta’sir o‘tkazishini hisobga olsak, peshlavhalarda, reklama matnlarida imloviy xatolarga, ma‘naviyatimizga zid ma’nolar chiqishiga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Ajnabi y so‘zlarga ruju qo‘yib, ularni duch kelgan joylarga osib qo‘yish bilan

ham ishbilarmonlar ko‘zlagan maqsadiga erisha olmaydi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi har bir yuridik shaxs, u do‘kon, to‘yxona, go‘zallik saloni yoki maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchasi bo‘ladimi, “tasdiqlatib o‘ganman-ku”, deb egallab turgan binosining peshtoqiga istalgan xorijiy tilda yozib qo‘yaversa, ona tilimizga hurmat-e’zoz qayoqda qoldi?

Nazarimizda, ajnabi so‘zlarga yopishavermasdan

ona tilimiz imkoniyatlaridan foydalansila, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Savdo majmuvalari, do‘kon va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarining o‘zbek tilida nomlanishi shu millat vakili sifatida barchamizning dilimizni xushnud etadi. O‘zbekona atamalar, nomlarning ko‘payishi ona tilimizga xos so‘zlarining ommalashishiga, milliy o‘zligimizni chuqurroq anglashga, yoshlarni davlat tiliga va qonunlarga hurmat ruhida kamol toptirishga xizmat qiladi.

Mitti hikoya

BIR TOMCHI SUV

Nigora bir haftagini qishloqqa onasining oldiga borib keladigan bo‘lib qoldi. Eri komandirovkada. Uy yolg‘iz qoldi. Poyezdga chiqib endi chamadonni o‘rniga qo‘yayotganida birdan bo‘shashib ketdi.

Tuvakdag‘i gulga suv quyish esidan chiqibdi-ku. Axir, Nigora uni qanday avaylardi. Kun ora suv quyib chamandek ochilib turgan gullarini hidlab-hidlab olardi. Nima bo‘ladi endi? Eri Kozimjon Kislovodskdan atayin samolyotda olib kelgan edi. Ikki yildan beri uni parvarish qilardi. Yozda hovliga opchiqib ekar, kuz keldi deguncha yana tuvakka o‘tqazib, uyning kungay tomondagi deraza raxiga qo‘yardi. Nima bo‘ladi endi? Bitta gul uchun orqaga qaytsinmi? Qaytardi ham, ammo poyezd joyidan qo‘zg‘alib, shitob bilan oldinga intilib ketyapti.

To qishloqqa yetguncha ham shu gul uning xayolidan ketmadи. Nazarida sarg‘ayib so‘layotgandek, qurib-qovjiragan barglari deraza oldiga to‘kilib yotgandek... U qishloqning qatqaloq ko‘chalaridan ketarkan,



**Said AHMAD,
O‘zbekiston xalq yozuvchisi,
O‘zbekiston Qahramoni**

biron uyning derazasida gul ko‘rdimi, bo‘ldi, xayoli yana uyiga uchib borar, qurib qolgan gul oldida ma‘yus turgandek bo‘lardi.

Nigora qaytayotganda qalin qor tushdi. Po‘stiniga o‘ranib poyezdga chiqdi-yu, vagon oynasidan oppoq dalalarni ma‘yus tomosha qilib keldi. Nihoyat uyi ostonasiga ham yetdi. Qanday qilib eshikka kalit solganini, qanday qilib deraza oldiga kelib qolganini o‘zi ham bilmasdi. Tuvakdag‘i gul hamon yashnab turardi. Uning ko‘mko‘k barglari tagidan yana kurtakchalar bo‘rtib qolibdi.

Nigora ochilaman deb, turgan g‘unchaga engashib dimog‘ini tekkizdi. Biram xushbo‘y, biram xushbo‘y!

U, bir hafta suvsiz qolgan bu gulning avvalgidek yashnab turishiga hayron edi. Oftob deraza qirovini eritib har kuni bir tomchidan tuvakka sachratganidan Nigora bexabar edi.

Bir tomchi suvda qanchalar qudrat borligini u sira-sira xayoliga keltirolmasdi.

INTERNETGA TOBELIK...



Amerika Qo‘shma Shtatlarida olib borilgan so‘rovnomalar natijasiga ko‘ra, aholining 91,2 foizi internet va gadjetlardan muntazam foydalanim keladi. Eng qizig‘i, ulardan 44 foizi o‘z xotiralariga emas, balki internet va smartfonlardagi ma‘lumotlarga ko‘proq suyanishini ma‘lum qilgan, ya‘ni ehtiyoj tug‘ilganda kerakli ma‘lumotlarni olish uchun aynan shu qurilmalarga murojaat etishga o‘rganib qolishgan.

Bunday ko‘nikmaga ega bo‘lganlarning yarmidan ko‘prog‘i har qanday oddiy yoki murakkab savolning javobini topish uchun bosh qotirib o‘tirishni deyarli unutishgan. Ayni paytda internetdan olingan javobdan foydalangan zahoti bu ma‘lumotni ham yoddan chiqarishgan.

Mutaxassislar bunday vaziyatdan xavotirda ekanligini yashirmagan. Zero, iste’molchilar internetdan istagan mahal olishi mumkin bo‘lgan umumiyligi ma‘lumotlarni qatori o‘z shaxsiy ma‘lumotlarni ham hech qanday muhofazaga ega bo‘lmagan tarmoqda saqlashga o‘rganib qolmoqdalar. Bunday aqliy dargasalik esa xotirani susaytirish bilan bir qatorda, kutilmagan salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin.

**Grim san‘ati yo‘nalishi
3-bosqich talabasi
Mohnabonu RASULOVA
tayyorladi**

Muassis:

0‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti

Bosh muharrir

Ma‘rufjon YO‘LDOSHEV

Tahrir hay’ati:
Sobirjon JUMAYEV
Hamdan ISMOILOV

Mas‘ul kotib:
Ozoda SHOBİLOLOVA

Muharrirlar:
Iroda BERDIYEVA
Saida ERGASHEVA

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug‘bek tumani,
Yalang‘och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (71) 230-28-03.
(71) 230-28-13.

Sahifalovchi:
Abdug‘ani SODIQOV

www.dsni.uz;
nashriyot@dsni.uz

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo‘limida tayyorlandi.
O‘ Ichami – A3, hajmi 4 bosma taboq.
Nusxasi – 250 dona. Narxi kelishilgan holda.
Chop etishga 6.06.2023-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro‘yxatga olingan.

Gazeta oyning oxirgi haftasida “KAMALAK PRESS” MChJ bosmaxonasida chop etiladi.
Manzil: Navoiy ko‘chasi 30-yu.